PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

CHET TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Ismoilova Shahrizoda Ollabergan qizi
Urganch RANCH texnologiya universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20604848

Annotatsiya.
Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, kommunikativ yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda uchraydigan muammolar hamda ularning yechimlari yoritiladi. Mazkur yondashuvning o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, chet tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.
Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, kommunikativ kompetensiya, chet tili ta'limi, nutqiy faoliyat, muloqot, zamonaviy metodlar, ta'lim samaradorligi.

Abstract.
This article analyzes the theoretical foundations of the communicative approach in foreign language teaching, its role in the educational process, and its practical significance. It also examines the challenges encountered in implementing the communicative approach in practice and discusses possible solutions. The importance of this approach in developing students' communicative competence, fostering their ability to communicate fluently in a foreign language, and improving the effectiveness of the teaching process is highlighted.
Keywords: communicative approach, communicative competence, foreign language education, speech activity, communication, modern teaching methods, educational effectiveness.

Аннотация.
В данной статье анализируются теоретические основы коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам, его роль в образовательном процессе и практическое значение. Также рассматриваются проблемы, возникающие при внедрении коммуникативного подхода в практику обучения, и пути их решения. Раскрывается значение данного подхода в развитии коммуникативной компетенции учащихся, формировании навыков свободного общения на иностранном языке и повышении эффективности образовательного процесса.
Ключевые слова: коммуникативный подход, коммуникативная компетенция, обучение иностранным языкам, речевая деятельность, общение, современные методы обучения, эффективность образования.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, ta'lim va texnologiyalar sohasidagi rivojlanishlar chet tillarini puxta egallashni zamon talabi darajasiga olib chiqdi. Shu sababli chet tillarini o'qitish

metodlarini takomillashtirish va ta’lim samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv alohida e’tiborga olinib, zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu yondashuv tilni grammatik qoidalar yig‘indisi sifatida emas, balki insonlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi vosita sifatida o‘rgatishga asoslanadi. Natijada o‘quvchilar tilni nafaqat nazariy jihatdan, balki real hayotiy vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmalarini ham egallaydilar.

An’anaviy o’qitish metodlarida grammatik qoidalarni o’zlashtirish va tarjimaga alohida e’tibor qaratilsa-da, bunday yondashuv ko’pincha o’quvchilarning real muloqot jarayonida chet tilidan erkin foydalanish imkonini yaratmaydi. Natijada o’quvchilar grammatik bilimlarga ega bo’lsalar ham, lekin o’z fikrlarini chet tillarida ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishadilar. Ushbu muammo chet tilini o’qitishda yangi va samarali metodlarni qo’llash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Kommunikativ yondashuv chet tilini o’qitishda eng samarali metodlardan biri sifatida tan olingan. Bu yondashuv tilni nafaqat grammatik qoidalar bilan emas, balki muloqot vositasi sifatida o’rgatishga qaratiladi. Bunda asosiy e’tibor o’quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o’qish va yozish ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyatini tahlil qilish, uning afzalliklarini yoritish hamda amaliyotda uchraydigan muammolar va ularning yechimlarini ko‘rib chiqishdan iborat.

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv bo’yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari o’rganildi.

Kommunikativ yondashuv tushunchasi

Bugungi kunda chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuv eng samarali metodlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchilarga tilni faqat nazariy jihatdan o‘rgatish emas, balki undan real hayotda foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Chunki til o‘rganishning asl maqsadi grammatik qoidalarni yodlash emas, balki boshqalar bilan muloqot qila olishdir.

Kommunikativ yondashuv 1970-yillarda Yevropada shakllangan bo‘lib, keyinchalik dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng tarqaldi. Bu yondashuvning paydo bo‘lishiga an’anaviy o‘qitish metodlarining ayrim kamchiliklari sabab bo‘lgan. O‘sha davrda ko‘pchilik o‘quvchilar grammatik qoidalarni yaxshi bilgan bo‘lsalar ham, kundalik hayotda chet tilida erkin gaplasha olmaganlar. Shu sababli tilni amaliy jihatdan o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi va yangi yondashuvlarga murojaat qilina boshlandi.

Kommunikativ yondashuvning rivojlanishida bir qator olimlarning hissasi katta bo‘lgan. Xususan, Dell Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasi ushbu metodning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. U (1972) kommunikativ kompetensiyani til bilimidan kengroq tushuncha sifatida izohlaydi. Uning fikricha, til o’rganuvchi nafaqat grammatik qoidalarni bilishi, balki turli ijtimoiy vaziyatlarda ulardan to’g’ri foydalana olishi ham zarur. Keyinchalik boshqa olimlar ya’ni Canale va Swain kommunikativ kompetensiyasining grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkibiy qismlarini ajratib ko’rsatganlar.

Mazkur yondashuvda o‘quvchi darsning faol ishtirokchisi hisoblanadi. Masalan, Ingliz tili darslarida “Role Play”, “Debate”, “Interview” usullari yordamida o’quvchilar mehmonxonada xona bron qilish, aeroportda suhbatlashish yoki xarid qilish kabi vaziyatlarni modellashtiradilar. Bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning xato qilishiga tabiiy holat sifatida qaraladi, chunki xatolar til o’rganish jarajonining tabiiy va ajralmas qismi hisoblanadi.

Shunday qilib, kommunikativ yondashuv chet tilini o‘qitishda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi, ularning darsdagi faolligini oshiradi hamda chet tilidan turli hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Chet tilini o‘qitishda kommunikativ metodning o‘rni

Chet tilini o‘qitishda kommunikativ metod zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu metodning asosiy maqsadi o‘quvchilarda chet tilidan hayotiy vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Til o‘rganish jarayonida faqat grammatik qoidalarni bilish yetarli emas, chunki o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifodalay olishi, suhbatdoshini tushunishi va muloqot jarayonida faol ishtirok eta olishi kerak. Shu sababli kommunikativ metod bugungi kunda chet tillarini o‘qitishning eng samarali usullaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Mazkur metodning ahamiyati shundaki, u tilni nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy muloqot vositasi sifatida o‘rgatadi. An’anaviy metodlarda ko‘proq grammatik qoidalarni o‘rganish va tarjima qilishga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, kommunikativ metodda asosiy urg‘u muloqotga beriladi. Natijada o‘quvchilar chet tilida fikr almashish, savollarga javob berish va turli hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kommunikativ metod dars jarayonida o‘quvchini markazga qo‘yadi. O‘qituvchi asosan yo‘naltiruvchi va tashkil etuvchi vazifani bajaradi, o‘quvchilar esa faol ishtirokchi sifatida darsning asosiy qismini egallaydi. Juftlik va guruhlarda ishlash, bahs-munozaralar, suhbatlar, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar bu metodning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bunday faoliyatlar o‘quvchilarning tilni amalda qo‘llashiga yordam beradi va ularning nutqiy faolligini oshiradi.

An’anaviy metod	Kommunikativ metod
O’qituvchi markazda	O’quvchi markazda
Grammatika asosiy	Muloqot asosiy
Tarjima ko’p	Suhbat ko’p
Passiv o’quvchi	Faol o’quvchi

1-jadval. An’anaviy va Kommunikativ metodlarning qiyosiy tavsifi.

Kommunikativ metodning yana bir muhim jihati shundaki, u tilning to‘rtta asosiy ko‘nikmasini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantiradi.

Kommunikativ kompetensiya

↓

Tinglash → Gapirish → O’qish → Yozish

O‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ma’lumotni eshitadi, o‘qiydi, muhokama qiladi va yozma ravishda ifodalaydi. Bu esa tilni yanada samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Muallifning fikricha, kommunikativ yondashuvning samaradorligi o‘qituvchining darsni to‘g‘ri tashkil etishiga bevosita bog‘liq.

Kommunikativ yondashuvning afzalliklari

Kommunikativ yondashuv bugungi kunda chet tillarini o‘qitishda eng samarali metodlardan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, uning amaliy yo’naltirilgan metod ekanligidadir. Natijada bu metod orqali o’quvchilar tilni real muloqot sifatida qo’llaydilar va ular chet tilida o’z fikrlarini aniq ifodalash, suhbatdoshini tushunish hamda samarali muloqot olib borish ko’nikmalariga ega bo’ladilar.

Kommunikativ yondashuvning yana bir afzalligi o‘quvchilardagi psixologik to‘siqlarni kamaytirishidir. Ko‘plab til o‘rganuvchilar xato qilishdan qo‘rqib, chet tilida gapirishda o’zlarini olib qochadilar. Ushbu metodda esa o’quvchilar xato qilishdan qo’rqmasdan o’z fikrlarini ifoda etishga harakat qiladilar. Bu esa ularning chet tilida muloqot qilishga bo’lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Kommunikativ yondashuvning samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim o’rin tutadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi kommunikativ yondashuv imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va boshqa muloqot vositalari o’quvchilarga chet tilini amaliy qo’llash uchun qo’shimcha imkoniyat yaratmoqda. Masalan, Zoom, Google Meet – videokonferensiyalar orqali xorijiy talabalar yoki professorlar bilan muloqot qilish, onlayn ma’ruzalarda qatnashish yoki xalqaro ta’lim platformalaridan foydalanish o’quvchining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, interaktiv ta’lim vositalari – Kahoot, Quizizz, Duolingo kabi platformalar dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Kommunikativ yondashuvda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Kommunikativ yondashuv chet tilini o‘qitishda samarali metodlardan biri hisoblansa-da, uni amaliyotga tatbiq etish jarayonida turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolar ta’lim sifatiga va o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish darajasiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ularni o‘z vaqtida aniqlash va samarali yechimlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativ yondashuvda uchraydigan asosiy muammolardan biri o‘quvchilarning chet tilida gapirishdan uyalishi yoki xato qilishdan qo‘rqishidir. Bunday holatlarda o’qituvchi qo’llab-quvvatlovchi va motivatsion ta’lim muhitini yaratishi zarur.

Yana bir muammo grammatik bilimlarning yetarli darajada shakllanmasligi bilan bog‘liq. Ba’zan muloqotga haddan tashqari e’tibor qaratilishi natijasida o‘quvchilar grammatik qoidalarga kamroq ahamiyat berishlari mumkin. Natijada ular erkin gapirsalar ham, nutqlarida ko‘plab xatolar uchraydi. Shuning uchun kommunikativ mashg‘ulotlarni grammatik tushuntirishlar va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash zarur hisoblanadi.

Yana bir muammo, sinfdagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi va muloqotga jalb qilish qiyinligidir. Bu muammoni juftlik va kichik guruhlarda ishlash metodlari orqali qisman bartaraf etish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ yondashuv chet tillarini o‘qitishda eng samarali va zamonaviy metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchilarda tilni amaliy faoliyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, kommunikativ metod o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda chet tilida erkin muloqot qilishga tayyorlaydi. Bundan tashqari, mazkur yondashuv o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirib, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni orttiradi. Kommunikativ metodlardan foydalanish o’quvchilarning og’zaki nutq faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kommunikativ yondashuvni qo‘llashda ayrim muammolar ham uchrashi mumkin. O‘quvchilarning tortinchoqligi, grammatik bilimlarning yetarli emasligi va katta guruhlar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar shular jumlasidandir. Biroq mazkur muammolarni to‘g‘ri metodik yondashuv va qulay ta’lim muhiti orqali bartaraf etish mumkin.

Demak, kommunikativ yondashuv nafaqat tilni o’rgatish vositasi, balki shaxsning kommunikativ, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik metod sifatida o’z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin Books.
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
4. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Harlow: Pearson Longman.
5. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). (2001). Strasbourg: Council of Europe.
6. Jalolov, J. J. (2012). Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
7. Bekmuratova, U. B. (2018). Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
8. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). White Plains, NY: Pearson Education.
9. Littlewood, W. (1981). Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching (3rd ed.). Oxford: Oxford University Press.